

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2023  
MAXSUS SON

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.A.Ganiyeva</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi .....	6
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida .....	10
<b>S.N.Fazildinova</b>	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works .....	14
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini .....	17
<b>D.S.Usmonova</b>	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language .....	20
<b>D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova</b>	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges .....	24
<b>N.R.Maxmudova</b>	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida .....	28
<b>M.Saminjonov</b>	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar .....	31
<b>I.M.Jo'rayev</b>	
Qadimiy qadriyatlar .....	37
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi .....	41
<b>N.Q.Adamboeva</b>	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari .....	49
<b>Z.M.Dadahonova</b>	
Components of knowledge control .....	53
<b>L.Teshebayeva</b>	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar .....	56
<b>Ш.М.Артикова</b>	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма .....	60
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida .....	66
<b>S.I.Quziyev</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari .....	70
<b>T.Z.Ismonova</b>	
Problems and solutions of grammar translation method .....	76
<b>N.A.Komilova</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari .....	80
<b>D.X.Madazizova</b>	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence .....	83
<b>S.A.Yusupova</b>	
Morphemic units expressing honour in different system languages .....	86
<b>N.Sidikova</b>	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri .....	91
<b>Sh.X.Nuritdinova</b>	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi .....	94
<b>N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva</b>	
Semantic analysis of english phrasal verbs .....	98
<b>B.A.Mukhtorova</b>	
The "Concept" in linguistics .....	102
<b>R.A.Ortiqov</b>	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili .....	106
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi .....	110

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQ USLUBLARINING O‘RGANILISH TALQINI

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИЗУЧЕНИЯ СТИЛЕЙ РЕЧИ В УЗБЕКСКОЙ  
ЛИНГВИСТИКЕINTERPRETATION OF THE STUDY OF SPEECH STYLES IN UZBEK  
LINGUISTICSAxmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrasasi o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tilimizdagi vositalarning turlicha ko‘rinishlari, sinonimik rang-barangligi, nutq jarayonida til birliklarining o‘ziga xos uslubiy chegaralanishi, til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish, o‘zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotida Funktsional Uslublarni o‘rganish sotsiolingvistik jihatdan g‘oyatda dolzarb masalalari muhokama qilindi. Buning asosiy sabablaridan biri, mustaqillik sharoitida o‘zbek lug‘at tarkibida bo‘lgan jiddiy o‘zgarishlar, tilning turli muomala jarayonida aloqa imkoniyatlarining kengayganligi va tobora takomillashib borayotganligi hisoblanadi.

**Аннотация**

В данной статье рассмотрены разные формы средств в нашем языке, многообразие синонимов, специфика методологической ограниченности языковых единиц в речевом процессе, необходимость избирательного использования языковых единиц в социальной среде и их научно-практический анализ в лингвистике. функциональные стили в современном развитии узбекского языкознания. Обсуждались социолингвистически актуальные вопросы обучения. Одной из основных причин этого являются значительные изменения в структуре узбекской лексики в условиях независимости, расширение коммуникативных возможностей в процессе различных взаимодействий языка и постоянное его совершенствование.

**Abstract**

This article discusses the means in our language have a different appearance, a variety of synonyms, the specific methodological limitations of language units in the speech process, the need to use language units selectively in the social environment and their scientific-practical analysis in linguistics, the functional styles in today's development of Uzbek linguistics Sociolinguistically relevant issues of learning. One of the main reasons for this is significant changes in the structure of the vocabulary of the Uzbek language in conditions of independence, the expansion of communicative capabilities in the process of various interactions of the language and its constant improvement.

**Kalit so‘zlar:** til va uslub masalalari, vazifaviy uslubshunoslik, nutq uslublari, nutq madaniyati, rasmiy uslub, badiiy uslub, ommabop uslub, so‘zlashuv uslubi, ilmiy uslub, stilistika.

**Ключевые слова:** языково-стилистические проблемы, функциональная стилистика, стили речи, культура речи, формальный стиль, художественный стиль, публицистический стиль, разговорный стиль, научный стиль, стилистика.

**Key words:** linguistic and stylistic problems, functional stylistics, speech styles, speech culture, formal style, artistic style, journalistic style, conversational style, scientific style, stylistics.

**KIRISH**

Kishilar o‘z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, leksik, grammatik, frazeologik birliklardan foydalanishlarida, avvalo, ularni o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo‘llaydilar. Tilimizdagi vositalarning turlicha ko‘rinishlarga ega bo‘lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo‘l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o‘ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

Umumxalq tili vositalarining bunday tanlab ishlatilishi nutqning turlicha ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib kelib, bu “nutq uslublari” deb yuritiladi.

Nutq uslublari leksik-grammatik jihatdan farqlanib turadi. Masalan, so‘zlashuv uslubida odatdagi tartib turlicha o‘zgarib tursa, terminlar, murakkab tuzilgan qo‘shma gaplar kam ishlatilsa, ilmiy uslubda buning aksi kuzatiladi.

O‘zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotida Funktsional Uslublarni o‘rganish sotsiolingvistik jihatdan g‘oyatda dolzarb masalaga aylandi. Buning asosiy sabablaridan biri,

mustaqillik sharoitida o'zbek lug'at tarkibida bo'lgan jiddiy o'zgarishlar, tilning turli muomala jarayonida aloqa imkoniyatlarining kengayganligi va tobora takomillashib borayotganligi hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligi zamonaviy fan sifatida shakllanganidan so'ng, aniqrog'i XX asrning 60-yillardan boshlab til va uslub masalalari bo'yicha muayyan tadqiqotlar yaratila boshlandi. O'zbek tilshunoslari jahon tilshunosligida, jumladan turkologiyada erishilgan yutuqlarga tayangan holda, stilistika fanining predmeti, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanligini aniqlashga va shu bilan o'zbek tili stilistikasi fanining nazariy asoslarini yaratishga kirishdilar. Tilshunosligimizda uslubshunoslik va nutq madaniyati kabi mustaqil yo'nalishlar shakllandi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbek tilshunosligida XX asrning katta yutuqlardan biri bo'lgan A.Shomaqsudovning[1] darsligida bu fanning predmeti, maqsad va vazifalari, til stillari va nutq stillari, funksional uslublar, sinonimiya kabi qator muammolarni birmuncha tartib bilan yoritilgan. Biroq ushbu darslik o'zbek tili stilistikasining to'g'ri yo'ldan rivojlanib borayotganligidan dalolat bersa-da, bu kitob bugungi kunda ilmiy jihatdan yangilanishga muhtoj. Ko'plab tadqiqotlar tarqoq holda olib borildi. Ushbu tadqiqotlar bugungi kunda yaxlitlashtirishga muhtoj. Umuman, o'zbek tili vazifaviy uslublarini chuqur o'rganish, bu uslublar bo'yicha yaratilgan ayrim tadqiqotlarni to'liq ilmiy tahlil qilish va zamonaviy tavsifini berish, bu borada jahon tilshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar bilan qiyoslash orqali turkona xususiyatlarini yoritish tilshunosligimizning bugungi kundagi muhim masalalaridan biridir.

O'zbek tilida bir qancha olimlarimiz tomonidan uslublar tadqiq etilgan, o'rganilgan. M.Mukarramov, A.Shomaqsudov, R.Qo'ng'urov, S.Karimov, T.Qurbonovlar, B.O'rinboyev, B.Yo'ldoshevlarning[2] yaratgan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalari chiqarilgan. Jumladan, mustaqillik yillarida o'zbek tilining vazifaviy uslublari borasida yaratilgan muhim asar professor Suyun Karimovning monografiyasidir[3]. Professorning tadqiqotida o'zbek tili vazifaviy uslublarining fonetik, grammatik, leksikologik, leksikografik, frazeologik xususiyatlari aniqlashtirilgan. Vazifaviy uslublardagi mantiqiylik, izchillik, ifodalilik va ta'sirchanlikni ta'minlagan nutqiy vositalar atroflicha tadqiq etilgan. Monografiyada yana vazifaviy uslubshunoslikning o'zbek tilshunosligida alohida ilmiy soha sifatida shakllanish bosqichlari belgilangan. O'zbek tilining stilistik resurslarini tahlil qilish bilan birga, bu borada keyingi o'n yilliklarda erishilgan yutuqlar umumlashtirilgan. Ularga mustaqillik davri talablaridan kelib chiqib baho berilgan. Vazifaviy uslubshunoslikning inson faoliyati u yoki bu aloqa doirasida amal qilish, ularni tanlash prinsiplari va ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilish vaziyati belgilangan[3].

### **MUHOKAMA**

Nutq uslublarining har biri bir butun yaxlit tizimi doirasida ish ko'radi va ifoda maqsadiga ko'ra til vositalarining uyushishi, takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Masalan, ot, kelishik, egalik, sifat, asliy, nisbiy, ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak va hokazo terminlarning tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda qo'llanilishi, uyushishi va takrorlanishi ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Nutq uslublarini belgilashda so'z, grammatik shakl va grammatik qurilishning uslubiy bo'yog'i jiddiy hisobga olinadi. Masalan, kichraytirish-erkalash jilosini beruvchi grammatik kategoriyalar, shamol, kuldi, aytdi, gapirdi kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa; tabassum qildi, so'zladi, sabo, boda kabilar badiiy nutqqa xos. Shuningdek, jilmaydi kabi so'zlar ijobiy; tirjaydi, ishshaydi kabilar salbiy munosabat bildiradiki, nutq jarayonida bu xususiyatlar hisobga olinadi.

Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammallashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'lib, yangilanadi. Masalan, rasmiy ish, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, rivojlandi, publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi[4].

### **NATIJALAR**

O'zbek tilidagi Funksional uslublarga doir qarashlar umumlashtiriladigan bo'lsa, uslublar dastlab og'zaki va yozma shakllarga, ularni yana o'z navbatida ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy, diniy va so'zlashuv kabi ko'rinishlarga ajratish haqida qarashlar mavjudligi ma'lum bo'ladi. Hozircha ulardan beshtasi - ilmiy, rasmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari va ularning me'yoriy xususiyatlari, til materiali sifatidagi hamda nutq jarayonidagi o'ziga xosliklari o'zbek tilshunosligida monografik yo'nalishda o'rganilgan [5]. Ammo diniy uslub o'zbek tilida haqiqatdan mavjudmi, agar mavjud bo'lsa, uning lingvostilistik xususiyatlari nimalardan iborat, degan masala hozircha o'rganilgan emas [6].

Har bir uslub doirasidagi og'zaki yoki yozma ko'rinishlar, har bir uslub qamroviga kiradigan tarmoqlar va janrlar ham o'z navbatida alohida uslubiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularni ana shu beshta vazifaviy uslub fonida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamiyat taraqqiy etgani sari bu uslublar nafaqat sifat jihatdan takomillashib boradi, balki ularning miqdori ortishi ham ehtimoldan xoli emas. Ushbu farazdan uzoqlashmay, nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda, o'zbek tilida yuqoridagi beshta uslub mavjudligini e'tirof etiladi va kuzatishlar shu tasnifga tayangan holda olib boriladi.

#### XULOSA

O'zbek tilshunosligida nutq uslublari tasnif qilishning yagona xulosa ishlab chiqilgan bo'lmasa-da, bu borada olimlarimiz o'z qarashlarini aytib o'tishgan. Nutq uslublari miqdorining turlicha ekanligi haqidagi fikrlar olimlar tomonidan insonlarning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy darajasi, tilning qanchalik rivojlanganligi va undan foydalanish madaniyatiga qarab aniqlangan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shomaqsudov A. O'zbek tili stilistikasi. (T.,1983)
2. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. - Toshkent: Fan, 1984. Shomaqsudov A. O'zbek adabiy stillari haqida; Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funksional stillari. — Samarqand, 1984; O'rinboyev B. Funksional uslubiyat va uning mohiyati, O'zbek tili so'zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. — Toshkent: Fan, 1979; Yo'ldoshev B. Tilning ijtimoiy mohiyati; Karimov S., O'zbek tili funksional stilistikasi, - Samarqand, 2010.
3. Karimov S., O'zbek tili funksional stilistikasi, - Samarqand, 2010.
4. Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D.. O'zbek tili uslubiyati masalalari. –“Namangan” nashriyoti, 2007. Betlar, 14-15.
5. **Уринбаев Б.** Вопросы синтаксис узбекской разговорной речи: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. — Ташкент, 1974; **Мукаррамов М.** Научный стиль современного узбекского литературного языка в семантика-функциональном аспекте: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. — Ташкент. 1985; **Бабаханова Д.** Официально-деловой стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ...канд филол.наук. — Ташкент, 1987; **Курбанов Т.П.** Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис.канд филол.наук. — Ташкент, 1987; **Karimov S.** O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fan.d-ri.dis. avtoref. -Toshkent, 1994.
6. **Karimov S.** O'zbek tilining diniy uslubi haqida ba'zi mulohazalar//Istiqolol yillari: milliy-diniy qadriyatlarining xalqqa qaytishi. O'zbekiston Respublikasi Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasining O'zR.Mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materillari. Toshkent, 2001, - bet 39-41.
7. Muzaffarova, A. N., & Qizi, A. S. T. (2020). Characteristic features of word formation of a newspaper article in English and Uzbek languages. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 41-43.
8. Axmadjonova, S. (2022). INGLIZ VA O 'ZBEK TILIDAGI GAZETA MAQOLALARIDA SO 'Z YASALANISHNING XARAKTERIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 155-159.